



**JANUBIY TURKMANISTONNING KOPETDOG‘ ETAKLARIDAGI
URBANISTIK JARAYONLARNING XORAZM VOHASIGA TASIRIGA
DOIR BA‘ZI BIR FIKR-MULOHAZALAR**

Boboxonov Q. Sh. Tadqiqotchi
UrDU O‘zbekiston Respublikasi

Annotatsiya:

Maqolada Janubiy Turkmaniston hududida turar-joy binolari qurilishida loy arxitekturasi bilimlarining paydo bo‘lishi tarixi, shuningdek, Kopetdog tog‘ etaklaridagi urbanistik jarayonlarning Xorazm vohasiga ta’siri haqidagi ba’zi mulohazalar ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: V. M. Masson, I. N. Xlopin, S. A. Ershov, O‘rta Osiyo, Kopetdog‘, Murg‘ob, Tajan, Jaytun, Geokso‘r, Cho‘ponota, Munchoqli, Bami.

Аннотация:

В статье была рассмотрена история возникновения знаний о глиняной архитектуре при строительстве жилых зданий на территории Южного Туркменистана, а также некоторые отзывы о влиянии урбанистических процессов в предгорьях Копетдога на Хорезмский оазис.

Ключевые слова: В. М. Массон, И. Н. Хлопин, С. А. Ершов, Средняя Азия, Копетдаг, Мургаб, Таджан, Джейтун, Геоксор, Чопонота, Мунчокли, Бами.

Annotation:

The article looked at the history of the emergence of knowledge of clay architecture in the construction of residential buildings on the territory of Southern Turkmenistan, as well as some feedback on the influence of urbanistic processes in the foothills of the Kopetdog on the Khorezm Oasis.

Keywords: V. M. Masson, I. N. Khlopin, S. A. Ershov, Central Asia, Kopetdag, Murgab, Tajan, Jaytun, Geoksor, Choponota, Munchokli, Bami.



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th March, 2025

XX asrning 40-yillarida O'rta Osiyo mintaqasida xususan Janubiy Turkmaniston hududida Markaz hamda ittifoqdosh respublikalar ilmiy markazlari bilan hamkorlikda turli nomli arxeologik ekspeditsiyalar tashkil etilib, arxeolog olimlar aholi tomonidan yaratilgan manzilgohlarda keng qamrovli tarzda arxeologik izlanishlar olib borishgan. Ushbu izlanishlar asos qilib olingan monografiya, disertatsiya va ilmiy koferentsiya ma'lumotlari neolit davri aholisi loy me'morchiligi bilimini yaratilish tarixini yoritishga xizmat qiladi. O'rta Osiyo mintaqasida neolit davri ibtidoiy jamoa tuzumi tarixida uzoq davom etgan tosh asri so'ngi bosqichi sifatida avvalgi davrlardan alohida ajralib turishi bilan izohlanadi. Arxeologik tadqiqotlar natijalariga ko'ra, O'rta Osiyo qadimgi davr jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy va etnomadaniy rivojlanishida sodir bo'lgan o'zgarishlar neolit tarixiy davr urug' jamoalari faoliyati bilan bog'liq.¹ Miloddan avvalgi VI ming yilliklarda Turkmanistonning janubidagi urug' jamoalari dastlabki dehqonchilik sohiblari bo'lib, sodda qilib rejalashtirilgan bir xil xajmdagi turar joylarda xo'jalik faoliyatini olib borib, hunarmandchilik, uy chorvachiligi va dehqonchilik madaniyati yo'nalishlarini olib borib, shaharsozlik madaniyati ildizlarini hosil qilgan (Jaytun).² Vaholangki bu davrda O'rta Osiyo mintaqasining boshqa hududlarida istiqomad qilgan urug' jamoalarida loy me'morchiligi bilimi mavjud emas edi. Masalan: Xorazm hududi geografik-geologik xususiyatlarini tadqiq qilgan A.S.Kes ma'lumotlariga qaraganda miloddan avvalgi V-IV ming yilliklarda Amudaryoning quyi havzasi, Sariqamish, Uzboy, Tuyamo'yin hududlarida antropogen lanshaft va iqlim sharoiti shakllanib insoniyat xo'jalik faoliyatini olib borish imkoniyati vujudga kelgan.³ Ammo tadqiqotchi A.V.Vinogradov asarlaridagi ma'lumotlarida Quyi Amudaryo, Sariqamish va Uzboy hududlaridagi urug' jamoalari aholisi o'zlashtiruvchi xo'jalik – ovchilik va termachilik bilan shug'ullanib, ularda bu davrda loy me'morchiligi bilimi mavjud emasligini takidlab o'tgan.⁴

¹ Sobirov Q. Xorazmning qishloq va shaharlari mudofaa inshootlari. – T.: Fan, 2009, - B. 82-83.

² Массон В.М. Поселение Джейтун. - Л., Наука, 1972. – С. 105-107.

³ Кесь А.С. Антропогенное воздействие на формирование рельефа аллювиально-дельтовых равнин Амударьи//культура и искусство древнего Хорезма. – М.: Наука, 1981. - С. 72-79.

⁴ Виноградов А.В. Неолитические памятники Хорезма // МХЭ. – М.: Наука, 1962. Вып.8



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th March, 2025

Neolit davri jamiyati xo‘jaligida yuz bergan o‘zgarishlarning ildizi mezolit davri xo‘jaligi zafarlariga borib taqaladi. Mezolit davrida aholining joylashishi, turmush tarzi hamda xo‘jalik soxasi yo‘nalishlari mazmun va mohiyatiga ko‘ra, ikki xo‘jalik tiplariga ajraladi. Yani tog‘li o‘lkalar, aholi asosiy mashg‘uloti ovchilik va termachilik, ikkinchisi tekislik, daryo sohillari, suv havzalari, buloqlar atrofidagi xo‘jalik baliqchilik, ovchilik va xonaki chorvachilik bo‘lib neolit davrida jamiyatning notekis rivojlanishi davom etgan. Janubiy Turmaniston miloddan avvalgi VI-V ming yilliklarda Kopetdog‘ oldi etaklari va Murg‘ob daryosi havzasida istiqomat qilgan urug‘ jamoalari turar-joylar qurilishida paxsa va guvalalar yordamida kvadrat shaklda bir-biriga ulanib ketgan uy-xonalarini bunyod qilishib, loy me‘morchiligi bilimiga asos solganlar.⁵ Bu bilim asosida undan keyingi davrlarda O‘rta Osiyoning boshqa mintaqalarida joylashgan qabilalar loy me‘morchiligi bilimini o‘zlashtirib, uni yanada rivojlantirganlar. Jaytun, Cho‘ponota, Munchoqli, Bami kabi manzilgohlarning ichki xususiyatini paxsa va guvalalardan qurilgan 20-30 ta birxonali uy-joylar qoldiqlari arxeologik jihatdan o‘rganilgan.⁶ Jeytun 1940-yillarda A.A.Marushchenko tomonidan kashf etilgan va 1950-yillardan B.A.Kuftin va V.M.Masson tomonidan qazishmalar olib borilgan.

Jaytun urug‘ jamoalarining xo‘jalik sohalaridagi ixtirolari:

- Ziroatchi-chorvachilik xo‘jaligi, o‘troq hayot va “qayr dehqonchiligi”
- Aholining ma‘lum hududda zich ahvolda joylashishi
- Hunarmandchilik turli sohalarining jamiyatni taraqqiy etishiga olib kelishi (ko‘pxonali paxsa va guvalali uy-xonalari).

Miloddan avvalgi IV ming yillik birinchi yarmiga kelib, aholi zichligi, oziq-ovqat tanqisligi va ekologik vaziyat taqozasidan aksariyat jaytunliklarning yangi avlodlarining aksariyati loy binokorligi bilimini yanada davom ettirish ilinjida Tajan daryosi havzasi sohili etagiga ulashib ketgan hududga kelib joylashib, loy me‘morchiligining yangi bilimlarini ixtiro qilib, manzilgohlar qurilishida namoyon qilganlar. Tajan daryosi havzasi atrofini qamrab olgan hudud Geokso‘r vohasida joylashgan jaytunliklar vorislari turar-joylar qurilishida ajdodlari amaliy tajribasini

⁵ Массон В.М. Поселения Джейтун проблема становления производящей Экономики/МИА. – Л.: Наука, 1971. № 180. – С. 10-80.

⁶ Ершов С.А. Холм Чопан-депе // Тр института истории, археологи и этнографии Ан Туркменской ССР. – Ашхабод, 1956. – С. 13-22.



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th March, 2025

davom ettiradi, ya'ni uy-joylar rejaviy tuzilishida kvadrat va to'g'riburchakli, paxsa va to'g'riburchakli xom-g'ishtli mudofaa devorlariga ega bo'lgan.⁷

Shunday qilib, yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga asoslanib quyidagi xulosaga kelish mumkin:

- Miloddan avvalgi VI-V ming yilliklarda Kopetdog' oldi etaklari va Murg'ob daryosi havzasida istiqomat qilgan jaytunlik urug' jamoalari o'troq hayot tarzida uy-chorvachiligi, hunarmandchilik yo'nalishlarini olib borganlar manzilgohlar paxsa va guvalalardan tiklangan. Ammo mudofaa devor bilan o'rab olinmagan.
- Miloddan avvalgi V ming yillik oxiri – IV ming yillik boshlarida Kopetdog' etagidagi urug' jamoasining vorislari Tajan daryosi soxiliga ulangan geokso'r vohasiga ko'chib kelib, turar-joylar qurilishida paxsa va to'g'riburchakli xom g'ishtni ishlatganlar. Loy kulolchiligida xumlarni ixtiro qilganlar, sun'iy sug'orish inshootlari yordamida dehqonchilik xo'jaligini turmush tarziga olib kirganlar. Manzilgohlar mudofaa xarakterga ega bo'lgan.
- Geokso'r vohasida o'rnatilgan o'troq aholining xo'jalik sohalaridagi ixtirolari bronza jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanishiga asos bo'lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Массон В.М. Поселения Джейтун проблема становления производящей Экономики // МИА. – Л.: Наука, 1971.
2. Массон В.М. Поселение Джейтун. – Л.: Наука, 1972.
3. Ершов С.А. Холм Чопан-депе // Тр института истории, археологи и этнографии Ан Туркменской ССР. – Ашхабод, 1956.
4. Хлопин И.Н. Геоксюрская группа поселений Эпохи энеолита. Опыт исторического анализа. – М-Л.: Наука, 1964.
5. Кесь А.С. Антропогенное воздействие на формирование рельефа аллювиально-дельтовых равнин Амударьи // культура и искусство древнего Хорезма. – М.: Наука, 1981.
6. Виноградов А.В. Неолитические памятники Хорезма // МХЭ. – М.: Наука, 1962. Вып.8
7. Sobirov Q. Xorazmning qishloq va shaharlari mudofaa inshootlari. – T.: Fan, 2009.

⁷ Хлопин И.Н. Геоксюрская группа поселений Эпохи энеолита. Опыт исторического анализа. – М-Л.: Наука 1964. – С. 30. Рис. 5